Murakkab tarmoqli yer osti inshootlari seysmodinamik nazariyasi asoschisi

Tursunbay Rashidov 1934-yil 27-mayda Toshkent shahrida tug’ilgan. 1956-yili O’rta Osiyo davlat universitetini (hozirgi O’zbekiston Milliy universiteti) tugatib, ushbu universitet aspiranturasida tahsil olgan. 1964-yilda nomzodlik, 1972-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1984-yilda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi etib saylangan.

Iste’dodli olim o’zining qariyb 65 yillik ilmiy pedagogik va tashkilotchilik faoliyati davomida Fanlar akademiyasi M.T.O’rozboyev nomidagi Mexanika va inshooatlar seysmik mustahkaligi instituti laboratoriya mudiri, Institut direktor, Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti rektori, Fanlar akademiyasi Prezidumi a’zosi, bosh ilmiy kotibi, akademik-kotibi, vitse-prezidenti va umrining oxirigacha M.T.O’rozboyev nomidagi Mexanika va inshooatlar seysmik mustahkaligi instituti laboratoriya mudiri lavozimlarida samarali mehnat qilib kelayotgan edi.

T.Rashidov - murakkab tarmoqli yer osti inshootlari seysmodinamik nazariyasining asoschisi va muallifi, respublikada seysmik mustahkamlik ilmiy maktabining rahbari, mexanika sohasidagi har tomonlama ilmiy izlanishlarni va uning natijalarini xalq ho’jaligiga tadbiq qilishning tashkilotchisi, O’zbekistonda fan, texnika va oliy ta’limni rivojlantirishga salmoqli hissa qo’shgan jamoat arbobi sifatida tanilgan.

T.Rashidov qurilish mexanikasi, to’lqin va tebranishlar nazariyasi, deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi, yer osti va yer usti inshootlarining seysmik mustahkamligi, asoslar va zaminlar dinamikasi sohalarida chuqur ustivor izlanishlarning bevosita muallifi sifatida obro’ qozongan.

Seysmodinamik nazariya va ilmiy ishlar asosida T.Rashidov rahbarligida jahon miqyosida birinchi marotaba seysmik hududlarda yer osti inshootlari uchun qurilish me’yorlari va qoidalari ishlab chiqildi va respublika miqyosida me’yoriy hujjat sifatida tasdiqlandi va Toshkent shahri metropolitenining yangi seysmik mustahkam konstruktsiyalarini yaratishga asos bo’ldi.

Akademik T.Rashidovning mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi sohasining nazariy va amaliy masalalariga bag’ishlangan 18 monografiya, 500 dan ortiq ilmiy maqolalari, ko’plab ihtirolar uchun mualliflik guvohnomalari yurtimiz va xorij olimlariga yaxshi ma’lum.

Jonkuyar ustoz sifatida ko’plab yoshlarga ilm-fan sirlaridan saboq bergan zahmatkash olimning bevosita rahbarligida 10 ta fan doktori va 40 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlangan.

Akademik T.Rashidovning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari uchun davlatimiz tomonidan Beruniy nomidagi O’zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, “O’zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoni, “Mehnat shuhrati” ordenlari bilan mukofotlangan.

Akademik Tursunboy Rashidovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.